

ADOLATLI RAQOBATNI RIVOJLANTIRISH VA MONOPOLIYAGA QARSHI KURASH STRATEGIYALARI TAHLILI

Farg'ona politexnika instituti Dotsent DSc

Tashpo'latov Aybek

e-mail: aybektashpulatov1@gmail.com

Farg'ona Politexnika instituti talabasi

Ismoilov Fayzullo Rustamjon o'g'li

e-mail: fayzulloi930@gmail.com

+998905841919

Annotatsiya: Maqolada iqtisodiy tizimda raqobat tushunchasi, ichki bozorda raqobat muhitini ta'minlashga qaratilgan davlatning iqtisodiy va moliyaviy mexanizmlari, ularning samaradorligi hamda erkin raqobatga salbiy ta'sir etuvchi omillar va shart-sharoitlar o'z ifodasini topgan. Mamlakatda raqobat muhitini shakllanishi va rivojlanishi dinamikasini tadqiq etish davomida, iste'molchilar o'rtasida o'tkazilgan sosiologik so'rovnoma natijalariga ko'ra yakka hokim tarmoq korxonalari guruhlashtirilgan hamda monopoliyaga qarshi qonunchilikni takomillashtirishga oid chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan strategik yo'nalishlar taklif etilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy tizim, bozor munosablari, raqobat, adolatli raqobat, yakka hokimlik, so'rovnoma, monopoliyaga qarshi kurashish, strategiya.

АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ ЧЕСТНОЙ КОНКУРЕНЦИИ И АНТИМОНОПОЛОГИЧЕСКИХ СТРАТЕГИЙ

Аннотация: В данной статье рассмотрено понятие конкуренции в экономической системе, экономические и финансовые механизмы государства, направленные на обеспечение конкурентной среды на внутреннем рынке, их эффективность, а также факторы и условия, негативно влияющие на свободную конкуренцию. В ходе исследования динамики формирования и развития конкурентной среды в стране по результатам проведенного социологического опроса потребителей были сгруппированы предприятия отдельных отраслей и предложены стратегические направления, включающие меры по совершенствованию антимонопольного законодательства.

Ключевые слова: экономическая система, рыночные отношения, конкуренция, справедливая конкуренция, единоличное правление, опрос, антимонопольное регулирование, стратегия.

ANALYSIS OF FAIR COMPETITION DEVELOPMENT AND ANTI-MONOPOLOGY STRATEGIES

Abstract: This article examines the concept of competition in the economic system, the economic and financial mechanisms of the state aimed at ensuring a competitive environment in the domestic market, their effectiveness, as well as factors and conditions that negatively affect free competition. During the study of the dynamics of the formation and development of the competitive environment in the country, based on the results of a sociological survey of consumers, enterprises of individual industries were grouped and strategic directions were proposed, including measures to improve antitrust legislation.

Keywords: economic system, market relations, competition, fair competition, sole management, survey, antimonopoly regulation, strategy.

Kirish

O'zbekistonning jaxon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi va Butunjahon savdo tashkilotiga teng huquqli a'zo bo'lib kirishi yo'nalishidagi sa'y-harakatlarining intensivligi ortib borishi sharoitida ichki bozorda rakobat muxitini shakllantirish, bozorning shaffofligi va ochiqligini ta'minlash, yakka hokimlikka barham berish hamda maxalliy ishlab chikaruvchilarning rakobatbardoshligini oshirish muhim vazifalardan hisoblanadi. Mamlakatda erkin va adolatli raqobat muhitini shakllantirish sohasini ilmiy tadkik etish, raqamli iqtisodiyotga transformatsiya sharoitida antimonopol qonunchilikni takomillashtirish, yakka hokimlikka qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini joriy etishni talab qiladi. Bozor munosabatlari sharoitida, ayniqsa, iqtisodiy tizimda raqamli texnologiyalarning transformatsiyasi amalga oshirilayotgan hozirgi sharoitda erkin raqobat muhiti ob'ektiv zaruriyat bo'lib hisoblanadi. Shu bois, raqobatni rivojlantirish tarkibiy isloxotlarining amalga oshirishda, yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida va davlatning iqtisodiy siyosatida ustuvor yunalishlaridan biriga aylangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son Farmoni asosida "O'zbekiston — 2030 strategiyasi" qabul qilingan bo'lib, unda adolatli raqobatni rivojlantirishga oida muhim masalalar o'z aksini topgan. Xususan, 2030 yilgacha monopol sohalarni bozor tamoyillariga izchil o'tkazish, iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish, tadbirkorlarga erkin faoliyat yuritishi uchun eng qulay sharoitlar yaratish maqsadida yaqin yillarda iqtisodiyotda nodavlat sektor ulushini 85 foizga yetkazish, davlat ulushi mavjud 2,3 mingta korxonalar sonini 6 barobarga kamaytirish, respublikada 17 turdagi davlat monopoliyasini bekor qilish, ushbu sohalarga xususiy sektorni keng jalb qilish, davlat tasarrufida faqat magistral energiya

va transport tarmoqlari, davlat boshqaruvi va xavfsizligi bilan bog'liq sohalarni saqlab qolish kabi vazifalar belgilangan.

Adabiyotlar sharhi.

Iqtisodiy tizimning barqaror rivojlanishiga erishish va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish iqtisodiyot tarmoqlariga zamonaviy texnologiyalar, nou-xau, sun'iy intellekt, ilg'or innovatsiyalarni joriy etishni talab qiladi. Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida tarmoq va xo'jaliklar, barcha tovar ishlab chiqaruvchilar uchun ichki bozorda adolatli raqobat imkoniyatlarini, ya'ni qulay makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy muhitni yaratish, ishlab chiqaruvchilarga eksport uchun shart-sharoit yaratish, ularni tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini ta'minlash maqsadida qo'llab-quvvatlash, xalqaro va jahon bozorida milliy manfaatlardan kelib chiqib qisqa va uzoq muddatli adolatli raqobat strategiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Erkin raqobat, uning shakllanishi va rivojlanishi haqida dastlabki to'laqonli ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar dastlab XVIII asrning o'rtalaridan keyin paydo bo'lgan. Bunda, albatta, iqtisodiy bilimlarning asoschilari hisoblangan A.Smit va D.Rikardoning xizmatlari kattadir. Raqobatga oid ana'anaviy yondashuvlarni keyinchalik F.Perru, A.Marshall, Dj.Keyns, V.Leont'ev, Y.SHumpeter, P.Sraffa, M.Porter, K. R. Makkonnell, S. L. Bryu, F.Kotler va boshqalar o'z qarashlarida va risolalarida ettirishgan.

O'zbekiston Respublikasida yakka hokimlikka qarshi kurash va erkin raqobat masalalarini tadqiq etishga bag'ishlangan ko'plab imliy manbalar mavjud. Jumladan, SH.SHodmonov, U.G'afurovlar tomonidan berilgan ta'rifda "Raqobat – bozor sub'ektlari iqtisodiy manfaatlarining to'qnashishidan iborat bo'lib, ular o'rtasidagi yuqori foyda va ko'proq naflilikka ega bo'lish uchun kurashi" tushunilishi ifoda etilgan. Bunda ishlab chiqaruvchilar o'rtasida sarflangan xarajatlarining har birirligi evaziga ko'proq foyda olish uchun kurash [2].

Olima M.T.Yaxshievaning fikricha "raqobat ko'p qirrali iqtisodiy hodisa bo'lib, u bozorning barcha sub'ektlari o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalaydi va bozor sub'ektlari iqtisodiy manfaatlarining to'qnashuvidan iborat bo'lib, ular o'rtasidagi yuqori foyda va ko'proq naflilikka ega bo'lish uchun kurashni anglatadi", deb hisoblaydi [3].

Tadqiqotchi Rajapov H. ham mazkur masalada o'z qarashlarini quyidagicha ifoda etgan: "tadqiqotlarda ko'pchiligimiz raqobatbardosh bozor deganda bozorda ko'plab xaridor va sotuvchilarning mavjudligini tushunamiz. ...Aslida, haqiqiy raqobat bu — tadbirkorlarning bozorga erkin kirib, uni erkin tark eta olishidir. Aynan bozorga kirishdagi to'siqlarning mavjudligi monopoliya yuzaga kelishi uchun asosiy omil hisoblanadi". SHuningdek ushbu holatning omillari sifatida yagona korxonalar ishlab chiqarishning asosiy resurslariga ega bo'lishi, hukumat ayrim mahsulotlarni ishlab

chiqarish va xizmat ko'rsatish bo'yicha bitta xo'jalik sub'ektiga mutlaq huquqlar taqdim etishi hamda tabiiy monopoliyalarning mavjudligini ta'kidlab o'tgan [4].

Mamlakatimizda qabul qilingan "Raqobat to'g'risida"gi Qonunda: "**raqobat** - xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning (raqobatchilarning) musobaqalashuvi bo'lib, bunda ularning mustaqil harakatlari ulardan har birining tovar yoki moliya bozoridagi tovar muomalasining umumiy shart-sharoitlariga bir tomonlama tartibda ta'sir ko'rsatish imkoniyatini istisno etadi yoki cheklaydi", deb ta'rif berilgan [1].

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda raqobat tushunchasini quyidagicha talqin etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymi: "Raqobat – bozor munosabatlarining muhim elementi sifatida mahsulot ishlab chiqarish, ayirboshlash va iste'mol jarayonida ishtirokchilarning teng huquqligini ta'minlovchi adolatli muhitni ifoda etuvchi iqtisodiy kategoriyadir".

Monopol hokimiyat, ya'ni ma'lum bir sohada bir kompaniya yoki kichik kompaniyalar guruhining hukmronligi iste'molchi tanlovi, innovatsiyalar va iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. So'nggi yillarda monopoliyalarning kuchayishi va ularning raqobatga salbiy ta'siri haqidagi xavotirlar korxonalar va iste'molchilar uchun yanada teng sharoitlarni ta'minlash uchun tartibga solish choralarini ko'rishga chaqirdi. Ushbu maqolada biz monopol hokimiyatga qarshi kurashish va bozorda adolatli raqobatni rivojlantirish bo'yicha turli takliflar va strategiyalarni o'rganamiz.

Tadqiqot usullari.

Tadqiqotlar davomida tovarlar bozorini ilmiy o'rganish va talqin etishning ilmiy abstraktsiya, tizimli yondashuv, statistik kuzatish, guruhlash, sotsiologik so'rovnomalar, statistik tahlil va ekspert baholash kabi usullaridan foydalanilgan. Xorijlik va yurtimiz olimlarining ilmiy ishlari tadqiqotning nazariy va metodologik asoslarini tashkil etadi.

Tahlil va natijalar.

Adolatli raqobatni rag'batlantirish monopoliyaga qarshi qonunlarning asosiy maqsadlaridan biridir. Ushbu qonunlar hech bir kompaniya yoki kompaniyalar guruhi bozorda hukmronlik qila olmasligini ta'minlash uchun ishlab chiqilgan bo'lib, raqobatni bo'g'uvchi va iste'molchilarga zarar etkazadigan monopoliyalarning shakllanishiga yo'l qo'ymaydi. Iqtisodiy nuqtai nazardan, adolatli raqobat sog'lom bozor iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ega, chunki u innovatsiyalar, samaradorlik va iste'molchilarning tanlovini rag'batlantiradi. Biroq, ushbu maqsadga qanday erishish mumkinligi haqidagi fikrlar har xil bo'lishi mumkin.


Adolatli raqobatni rag'batlantirishga yondashuvlardan biri bu narxlarni belgilash, takliflarni soxtalashtirish va bozorni taqsimlash kabi raqobatga qarshi amaliyotlarning oldini olishdir. Ushbu amaliyotlar raqobatchilar o'rtasida narxlarni manipulyatsiya qilish yoki bozorlarni taqsimlash, raqobatni samarali ravishda cheklash uchun til biriktirishni o'z ichiga oladi. Bunday amaliyotlarni taqiqlash orqali

monopoliyaga qarshi qonunlar korxonalar o'z mahsulotlari yoki xizmatlarining afzalliklari asosida raqobatlasha oladigan teng sharoit yaratishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoev 2024 yil 28 may kuni iqtisodiyotda raqobat muhitini ta'minlash va iste'molchilar huquqini himoya qilish borasidagi ustuvor vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilishda O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga qat'iy o'tishi jarayonida raqobat masalasi printsiptial ahamiyatga ega ekanini ta'kidlab, hukumat oldiga bir qator masalalarni qo'ygan holda asosiy urg'uni yakka hokim korxonalarining salbiy ta'siriga qaratdi: «Raqobat bo'lmasa, sifat bo'lmaydi, narx tushmaydi. Zamon o'zgaryapti, lekin monopol korxonalar o'zgara olmayapti. Qat'iy choralar ko'rish vaqti-soati keldi».

Monopoliyaga qarshi qonunlar orqali adolatli raqobatni rag'batlantirish muhimligini ko'rsatish uchun telekommunikatsiya sohasi misolini ko'rib chiqamiz. Ko'pgina mamlakatlarda bu sektorda infratuzilma va xizmatlarni nazorat qiluvchi bir necha yirik o'yinchilar hukmronlik qiladi. Monopoliyaga qarshi qonunlar bo'lmasa, bu hukmron firmalar o'ta yuqori narxlarni to'lash, raqobatchilarga kirishni cheklash yoki innovatsiyalarni bo'g'ish orqali o'zlarining bozor kuchlarini suiiste'mol qilishlari mumkin. Adolatli raqobatni ta'minlash orqali monopoliyaga qarshi qonunlar yangi ishtirokchilarni rag'batlantiradi, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlaydi va iste'molchilarning arzon va sifatli xizmatlardan foydalanishini ta'minlaydi.[2]

1-diagramma



Farg'ona shaxri aholisidan mamlakatdagi eng ashaddiy monopolistni ma'lum qilish so'raldi. Og'zaki so'rovnomada taxminan 2 350 kishi o'z fikrini bildirdi. Ularning 74 foizi fikricha, GM Uzbekistan eng ashaddiy monopolist sanaladi. 6 foiz bu «O'zbekiston havo yo'llari» ekanini ta'kidlagan bo'lsa, 6 foiz «O'ztransgaz»ni aytdi, yana 6 foiz - «O'zbektelekom», 4 foiz - «O'zbekneftgaz», 4 foiz - «O'zbekiston temir yo'llari» va 3 foiz - «O'zbekenergo». Qolgan 4 foiz fikriga ko'ra, boshqa tashkilotlar ashaddiy monopolist hisoblanadi.

Rasmiy ma'lumotlar asosida tadqiqotlar davomida bir qator yakka hokimlikka oid huquqbuzarliklar va holatlar ham mamlakatdagi adolatli raqobta muhitini shakllanishiga to'sqinlik qilmoqda.

Xususan, «Raqobat to'g'risida»gi Qonun talablariga rioya etilishi yuzasidan 2023 yilda o'tkazilgan o'rganishlarda 14 482 iste'molchining 23,3 mlrd so'mlik manfaatlari himoya qilinib, mablag'lar qayta hisob-kitob qilinishi ta'minlangan. Tabiiy monopoliya sub'ektlari sifatida Davlat reestriga kiritilgan 135 ta xo'jalik yurituvchi sub'ekt qayta xatlovdan o'tkazilib, raqobat muhitini buzganligi aniqlangan 46 tasi Davlat reestrda chiqarilgan. Shuningdek, davlat buyurtmachilari tomonidan o'tkazilgan 62 465 ta tanlov (tender) savdolarini tahlil qilish natijasida 27 730 ta raqobatga zid harakat aniqlangan va 24 018 tasi huquqni muhofaza qilish organlariga chora ko'rish uchun yuborilgan, 2 688 ta harakat bo'yicha Qo'mita tomonidan ish qo'zg'atilib, 485 nafar mansabdor shaxs ma'muriy javobgarlikka tortilgan¹.

Mamlakatda ijtimoiy ahamiyatga ega tovarlarning narxlarini nazorat qilish va barqarorligini ta'minlash choralarini ko'rish, yuqori likvidli va monopol mahsulotlar (benzin, ko'mir, metall va boshqalar), shuningdek, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan iste'mol mahsulotlari (un, go'sht, non, shakar, o'simlik yog'i va hokazo) narxlari asossiz oshirilmasligini nazorat qilish, monopoliyaga qarshi komplaens tizimi joriy etilishini ta'minlash zarur.

Monopoliyaga qarshi qonunlarning asosiy vazifalaridan biri monopoliyalarning shakllanishi va suiiste'mol qilinishining oldini olishdir. Monopoliya bitta kompaniya ma'lum bir bozorda hukmronlik qilganda yuzaga keladi, bu unga narxlar ustidan sezilarli nazoratni ta'minlaydi va iste'molchilarning tanlovini cheklaydi. Monopoliyaga qarshi qonunlar monopoliyalarni yo'q qilishga yoki tartibga solishga qaratilgan bo'lib, boshqa korxonalar raqobatda adolatli imkoniyatga ega bo'lishini ta'minlaydi. Misol uchun, 20-asrning boshlarida Standard Oilning parchalanishi kuchli monopoliyani yo'q qilish orqali adolatli raqobatni rag'batlantirish uchun monopoliyaga qarshi qonunlar qo'llanilganligi e'tiborga molik holatdir.

¹ Электрон ресурс: <https://senat.uz/oz/events/post-1863>

Korxonalar uchun monopoliyaga qarshi qonunlarga rioya qilish bo'yicha maslahatlar:

- Muvofiqlikni ta'minlash uchun yurisdiksiyangizdagi monopoliyaga qarshi qonunlar bilan tanishing.
- Narxlarni belgilash, takliflarni soxtalashtirish yoki bozorni taqsimlash kabi raqobatga zid deb hisoblanishi mumkin bo'lgan har qanday kelishuv yoki amaliyotga kirishishdan saqlaning.
- to'g'ri va shaffof narx siyosatini yuritish, ular raqobatchilar bilan til biriktirishdan ko'ra bozor munosabatlariga asoslanganligini ta'minlash.
- Tashkilotingizda halol raqobat madaniyatini shakllantirish va targ'ib qilish, xodimlarni monopoliyaga qarshi qonunlar va ularning ahamiyati haqida o'rgatish.

Monopoliyaga qarshi qonunlar raqobatni rag'batlantirish va bozorda raqobatga qarshi amaliyotlarning oldini olishga qaratilgan. Monopoliyaga qarshi nazoratni kuchaytirish va amaldagi qonunlarni yanada tajovuzkorlik bilan qo'llash monopolistik xatti-harakatlarni jilovlash va kichik biznes uchun o'yin maydonini tenglashtirishga yordam beradi.

Monopoliyaga qarshi kurashishda ba'zi strategiyalar:

– Texnologik platformalar raqamli iqtisodiyotda hal qiluvchi rol o'ynaydi, ular onlayn tijorat, kontentni tarqatish va aloqa uchun darvozabon bo'lib xizmat qiladi. Ushbu platformalarni adolatli kirish, ma'lumotlar maxfiylikni himoya qilish va raqobatni ta'minlash uchun tartibga solish monopol hokimiyatni suiiste'mol qilishning oldini olishga yordam beradi. Ma'lumotlarni ko'chirish, o'zaro ishlash talablari va shaffoflik choralari kabi takliflar raqamli makonda raqobat va iste'molchilar tanlovini oshirishga qaratilgan.

– Innovatsiyalarni rag'batlantirish va bozorga yangi raqobatchilarning kirib kelishiga ko'maklashish monopol hokimiyat ta'sirini bartaraf etishga yordam beradi. Kichik biznes, startap va tadbirkorlarni grantlar, soliq imtiyozlari va tartibga soluvchi islohotlar orqali qo'llab-quvvatlash yanada xilma-xil va raqobatbardosh bozorni yaratishi mumkin. Bundan tashqari, texnologik taraqqiyot va buzuvchi innovatsiyalarni rag'batlantirish amaldagi monopoliyalarga qarshi turishi va raqobatni kuchaytirishi mumkin.

– Iste'molchilarga monopolistik amaliyotlar, narx strategiyalari va alternativalar haqida ma'lumot berish bozor hokimiyatining bir nechta ustun o'yinchilar qo'lida mustahkamlanishining oldini olishga yordam beradi. Iste'molchilarni himoya qilish guruhlarini, nazorat qiluvchi organlar va siyosatchilar iste'molchilarni ularning huquqlari haqida ma'lumot berish, adolatli raqobatni rivojlantirish va monopolistik sub'ektlarni o'z harakatlari uchun javobgarlikka tortish uchun birgalikda ishlashi mumkin.

Xulosa

Monopol korxonalarining yakka hokimlik xususiyatidan kelib chiqadigan muammolarni hal qilish tartibga soluvchi islohotlar, monopoliyaga qarshi kurash, innovatsiyalarni rag'batlantirish va iste'molchilarni himoya qilishni o'zida mujassam etgan ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi. Monopolistik xulq-atvorga qarshi kurashish va adolatli raqobatni qo'llab-quvvatlash bo'yicha maqsadli strategiyalarni amalga oshirish orqali siyosatchilar korxonalar, iste'molchilar va butun jamiyat uchun foydali bo'lgan yanada dinamik va inklyuziv bozorni yaratishi mumkin. Manfaatdor tomonlar innovatsiyalarni rag'batlantiradigan, iste'molchilarning tanlovini himoya qiladigan va iqtisodiyotning barcha ishtirokchilari uchun teng shart-sharoitlarni ta'minlaydigan raqobat muhitini rag'batlantirish uchun birgalikda ishlashi juda muhimdir. Xulosa qilib aytganda, adolatli raqobatni rag'batlantirish monopoliyaga qarshi qonunlarning asosiy maqsadi hisoblanadi. Raqobatga qarshi amaliyotlarning oldini olish, hukmron firmalarning suiiste'mol xatti-harakatlariga chek qo'yish va qo'shilishlarni sinchiklab tekshirish orqali ushbu qonunlar teng sharoit yaratish va iste'molchilarni himoya qilishga qaratilgan. Ushbu maqsadga erishish qonunchilikni tartibga solish, tartibga solish islohotlari va tartibga solish yo'li bilan raqobatni rag'batlantirish o'rtasida muvozanatni saqlashni talab qiladi. Oxir oqibat, maqsad bozorlarning raqobatbardoshligini ta'minlash, iste'molchilarga foyda keltirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasining Raqobat to'g'risidagi Qonuni // lex.uz
2. SHodmonov SH.SH., G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. – T.: «Moliya», 2005, 159-b.
3. Yaxshieva M.T. Hozirgi zamon raqobat nazariyasi: O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2019. – 280 bet.
4. Rajapov H. Antimonopoliya — davlatning «ko'rinar qo'li» haqida//<https://kun.uz/kr/news/2019/01/23/antimonopoliya-davlatning-korinar-qoli-haqida>
5. Jumaev N. Monopol kompaniyalarni «parchalab», aktivlarini bozorga olib chiqishimiz kerak// <https://uzlidep.uz/news-of-party/6642>
6. Tashpulatov A. Problemi zanyatosti v sovremennoy ekonomike i faktori, kotorie yee opredelyayut. CENTRAL ASIAN ACADEMIC JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH ISSN: 2181-2489 VOLUME 2, ISSUE 5, 2022.
7. Kudbiev D., Tashpulatov A. Ishchi kuchidani samarali foydalanishning iqtisodiy-moliyaviy dastaklari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences/ May 2022/VOLUME 2 | ISSUE 5 ISSN 2181-1784/. P. 843-851

8. Tashpulatov A. Current Issues of Training Qualified Personnel. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. volume: 02 issue: 11 | nov 2021 issn: 2660-454x. R.20-25
9. Tashpulatov A. Mehnat bozorida ishchi kuchining raqobatbardoshligini oshirish. AGROILM jurnali, Maxsus son, №70, 2020 y., 109-100 b.
10. Ilyosov, A. A. (2020). Industrial and regional analysis of industrial production and export in Uzbekistan. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD), 5(10), 173-179.
11. Ilyosov, A.A. (2022). Sanoat mahsulotlari eksporti: hududiy tahlil, omillar va eksportdagi tendentsiyalar (Farg'ona viloyati misolida). Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 2 (1), 31-39. Doi: <https://dx.doi.org/10.5281/zenodo.6089956>
12. Kurpayanidi, K. I., & Ilyosov, A. A. (2020). koronavirus pandemiyasining jahon va hududiy sanoat mahsulotlari eksportiga ta'siri: muammo va takliflar. Yangi O'zbekiston iqtisodiyotining makroiqtisodiy barqarorligini taminlash: muammolar, tahlillar va natijalar" mavzusida respublika miqyosida onlayn, ilmiy masofaviy konferentsiya materiallari.
13. Курпаяниди, К. И., & Илёсов, А. А. (2022). Саноат маҳсулотлари экспортининг ташкилий-иқтисодий механизмларини такомиллаштириш (Фарғона вилояти саноат тармоғи мисолида)// Монография. Al-Ferganus, 2022. ISBN 978-9943-7707-5-1. – DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.6618980>
14. Ilyosov, A. A. (2023). Sanoat mahsulotlari eksportining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari: xorij tajribasi va amaliyoti // Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 3 (4), 84-91. Doi: <https://dx.doi.org/10.5281/zenodo.8088528>
15. Axrorjon o'g'li, Ilyosov Asrorjon, va Abdullayev Jahongir Nurali o'g'li. "DAVLAT BYUDJETINING ILMIY TADQIQOTLARGA AJRATAYOTGAN MABLAG 'LARI TAHLILI: XORIJ VA MILLIY TAJRIBA." TADQIQOTLAR. UZ 33.1 (2024 yil): 186-193.